

## PUBLISTIK PAFOSNING BADIY SO'ZDAGI KUCHI

**Ziyada Adilbaevna Kojikbeva**

Qoraqalpoq davlat universiteti

### ANNOTATSIYA

Ijodkor insonlar qaysidir ma'noda kelajakni oldindan ko'ra oladi, o'ylar izmida uni samimiy sezib, umrning achchiq-chuchuk tomonlarini ochib bera oladigandek fikrlashi sir emas. Insoniyatning ma'naviy dunyosini boyitishda so'z ustalarining xizmati katta.

**Kalit so'zlar:** adabiyot, filologiya, pafos, publistik pafos, so'z.

### KIRISH

Fikrlash olami keng, aqidasi mustahkam, hassosligi teran, yuqori madaniyatli, hayotini yaxshilik va go'zallik qonunlari bilan qura oladigan ma'naviyatli insonlar o'zlarining ijodi bilan e'tiborga molik tushuncha va hislarni tarbiyalab jamiyat rivojlanishida hissa qo'shayotganligi so'zsiz. T. Jumamuratovning badiiy asarlarini o'rganar ekanmiz, u yerda odil, insonparvar jamiyat haqidagi orzularga to'la ekanligining guvohi bolamiz. Hayotiy tajriba uning poeziyasiga publisistik pafos singdira olganligi so'z qudratini qanchalik o'zida jamlaganligini ko'rsak bo'ladi.

### ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Adabiyotshunos olim, professor Q. Sultonov: «Bitta ilm-ilmshunos, bitta tilshunos, bitta adabiyotshunos qoraqalpoq tilini qancha darajada teran bilaman desa hamki, T. Jumamuratovdek bilishi mumkin emas. Buni farqli belgilab o'tish zarur» - degan ilmiy tanqidiy fikrda terang mano bor.[1-68-70]

«Jaqsiliqtin karamatli isi bar,

A'dilliktin qudiretli kushi bar! » degan mulohaza shoirning har xil janrlarda yozilgan asarlarining asosiy o'lchami desak ham bo'ladi. Sababi, takomillashgan jamiyatda insonlar munosabati haqidagi meroslardagi og'zaki qadriyat - yaxshilik va odillik. Yaxshilik - bu odillik munosabati, odil munosabatda bo'lmoq - yaxshilik manbai.

Ushbu haqiqat shoirning asarlarida o'z aksini topgan.

Masalan,

«Tan' qalarliq qiyal jetpes karamat,

Ken' aspanin' jaynap turgan aq kuni.

Onda bolmas ten'sizlik, ya alag'at,  
Jer jahange birdey sepken jaqtini».[2-112]

Shu qatori, bu ijodiy jamiyatdagi odillikka bo'lgan munosabatlardan ham kengroq ma'noni jamlab, yaratilishining o'zi - hamma uchun tenglik mezonida ekanligi haqidagi falsafiy xulosaga kelib taqaladi:

«Dunya basta hamme ushin qurildi,  
Jasliq taxtim qashiqlasa buring'i.  
Barliq jannin' huquqi ten' biz benen,  
Kelgenlerge bocatimiz orindi».[2-123]

Mamlakat qurilishi va boshqarish to'g'risidagi eng muhim vazifalar mamlakatda qonuniy asosda belgilab qo'yilgan. Konstitutsiyaga yarasha, O'zbekiston Respublikasida Oliy Majlis, Prezident, Vazirlar Kengashi, mahalliy davlat hokimiyati, sud hokimiyati organlari – davlat hokimiyatini ro'yobga chiqaradi.

Davlat hokimiyati organlari jamiyatda yuqori ma'naviyatga asoslangan targ'ibot-tashviqotlarni ta'minlab, milliy va umumiyinsoniy qadriyatlarni keng joriy qiladi, odamlarni yaxshilik yo'lida birlashish g'oyalarni yaratadi. Davlatning bu maqsadlaridagi mo'jizaviy tayanchlaridan biri – adabiyot, albatta.

Xohlagan ijodkor zamonining progressiv g'oyalaridan ozuqlanib, turmush faktlarini baholash munosabatini bildirish orqali odillik modelini taklif qiladi.

T. Jumamuratovning:

«Adillik- daraq, adil bolsan darag'isan jurtinnin'»,  
«O'zin emes jurt o'lsheydi bahandi,[264]

«O'zim Sharyarman dep shawqimdi salma,

To'bende koz tigip sinap tur xalqin»[2-266]- degan satrlarida, aholi xohishi jamoat fikri bilan hisoblashish shartligini eslatadi.

Yurtga rahbar bo'lishning, mamlakat taqdiriga mas'uliyatning og'irligi :

«Basshi kelip kelip ketedi xalq qaladi,  
Jaqsi basshi sirtinan maqtaladi.  
Aradan ketsede ol, o'tsede ol,  
Adamlar jureginde saqlanadi.

Basshi bolsan elinin' ag'asi bol,

Bir jag'inan xizmetker balasi bol»[2-180]- degan fikrlarda yaxshilik ulug' ijodiy misolida, demokratik yangilanishlar haqidagi orzular har qanday progressiv ongning, demak xalqning

xohishi ekanligini bilishimiz va bu orzularni amalga oshirishda bugungi bizning asrimizning maqsadiga aylanganligidan sevinamiz.

Shoirning «Suwg'a ketken adam» degan asarining mazmuni g'oyat oddiy syujetga qurilgan. Bitta otboqar «julqinip aqqan daryag'a» qarab turib, u yerda «batip-shumip qalqlap, demi qiship halqlap» oqib ketayotgan odamni ko'rib qolib qutqaradi. Bu :

Iyesi barliq dunyanin'  
A'sfendiyar xan eken  
Xan ozin qutqariwshig'a  
Kereginshe alaber,  
G'aziynemnen malimnan  
Buginnen baslap sende ulken toresen  
Deb kop boylik, amal vada beradi.  
Otboqar bolsa,  
Bayliqqa joq jarisim  
Hamalga bolmas tarisim  
Qutqariw-isi hammenin'  
Adamshiliq ari ushin. [2-273]

Ergim kelmes qumartip  
Miyнетten qol qabartip  
Xaliq penen dawran surgenim  
Xanlig'imnan min' artiq. [2-273] deb javob beradi.

Shunda xon "nadansan sen jilqishi" deb otboqarni "siqaqlap soz aytip" kinoyalaydi. Otboqar:

Nadan desen nadanman  
Biraq mende adamman  
Senin menen dos bolsam  
Hamme ushin jamanman.

Elge qadrin qalmag'an  
Xanliq - baxit bolmag'an  
"Qutqardi" dep til qatpa  
Ulken siyliq sol mag'an. [2-273]- deb javob qaytaradi.

Bu javobda chin ma'noda turmush tajribasi va insoniylik fazilatlar yashiringan. T. Jumamuratovning

Jaslayimnan adebiyat ermegim  
Qisilsamda ardi qoldan bermedim  
Bazbirewler hamel menen ursa da  
Haqiqatliq joldan tayip kormedim. [2-148]  
degan qatorlaridan shoirning

degan satrlaridan shoirning haqiqat uchun kurashda hech kimdan tortinmaganligi, lavozimdagi amaldorga ham, oddiy fuqaroga ham birdek insonparvarlik nuqtai-nazaridan baholovchi munosabatda bo'lganligini ko'ramiz.

### MUHOKAMA

Mamlakatimizda keng joriy qilinayotgan demokratiya prinsipi birinchi navbatda insonning insonparvarlik, odillik, huqiqiy bilimi va ma'naviy barkamolligiga yo'naltirilgan.

Bu xususiyatlarning yetishmovchiligi har davrining progressiv mulohazasining asosiy tashvishi. T. Jumamuratov jamiyatning rivojlanishiga to'siq bo'lganlarni keskin tanqidga olishdan charchamadi. Uning «Tiriyek jutqan jayin» degan timsolida nafs balosiga yo'liqqan «bir aydik jayin»ning taassuf yakuni, lavozim - bu xalq ishonchi, katta javobgarchilik ekanligini uqtirib, mas'uliyatni tushunmovchilik oqibatini bildirib ogohlikga chaqiradi:

«Aqmaqqa xamal –  
Murnina batpan samal.  
«Saq bol» degendey,  
Hamalparasliq – kesel,  
Tiriyek jegendey:  
Kem-kemmen ma'siredi,  
Qoddaslap esiredi.  
Jaman degen attan da qashpas,  
O'tirik mag'lumattan da qashpas.  
Shalqiydi bilingenshe,  
Sag'aqtan ilingenshe»[2-275].

### XULOSA

Demokratiyaning zarur sharti - erkinlik, terang mulohaza qilish.  
Biroq, erkinlik beboshlik emas. Demokratiya - shaxsning hamma uchun teng zarur qonunlarga to'liq itoatini, tartib-intizomga suyanib yashashini taqazo etadi.

Inson umrining na fizik, na ijtimoiy aspektida cheksiz, absolyut erkinlikning bo'lishi mumkin emas, deymiz. Sababi, erkinlikning kafolati - bu inson borlig'ining o'z maqsadlariga yarasha qonun asosida, axloqiy-estetik munosabat doirasida yechim qabul qilish va harakat qilishi bo'ladi.

## REFERENCES

1. Нурмухаммедов М.К. Шығармаларының еки томлығы. I том. Нөкис. «Қарақалпақстан», 1983.
2. Султанов.Қ «Шайыр жолы», Нөкис«Қарақалпақстан», 1986-ж
3. Жумамуртов Т. «Өмириңнин өзи философия», Нөкис, 2005
4. Жумамуратов Т. Аралға келдим оралып. Алғы сөз. –Нөкис. «Қарақалпақстан». 2016.
5. Пахратдинов Ә. Халық шайырларында шайыршылықтың келип шығыў тарийхынан. Нөкис. 1986.

